



ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-May 2025 yil
Ma'qullandi: 10- May 2025 yil
Nashr qilindi: 15-May 2025 yil

KEYWORDS

Badiiy psixologizm, psixologik tasvir, psixologik tahlil, psixologiya fani yutuqlariga tayanish, tipologik prinsip, analitik prinsip, dinamik prinsip.

JIMJITLIK ROMANIDA SHAXS PSIXOLOGIYASI QONUNIYATLARINING VOQELANISHI

Xurramov Javlonbek Nurmaxmatovich

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15424356>

ABSTRACT

Romanlardagi qahramonlar ruhiyatini tadqiq etishda psixologiya fani yutuqlaridan foydalanish muhim ilmiy-nazariy xulosalarning maydonga kelishi uchun sharoit yaratishi mumkin. Yozuvchining personajlar o'y-xayollarini, harakatlari ortidagi murakkab his-tuyg'ularini ifoda etishda hayotiy mantiq prinsiplariga qay darajada rioya qilganligi asar badiiyatida o'z belgilarini namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan psixologik tasvirni ilmiy asosda tekshirish tadqiqotning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yozuvchining ijod mahsuli bo'lgan romandagi personaj xarakteri, ruhiyati tasviri va tahlilini shaxs psixologiyasi fani qonuniyatlarini e'tiborga olgan holda , bu sohada umume'tirof etilgan ilmiy ishlar bilan qiyosiy tadqiq etish adabiyotshunoslikda yangi ilmiy-nazariy xulosalarning yuzaga chiqishi uchun imkoniyat yaratadi. Adabiyotshunos olimlar psixologiya, psixoanaliz sohalarini badiiy asarlar tahlili uchun zarur bilimlar manbai deb hisoblaydilar. Shu bilan bir qatorda badiiy adabiyotning psixologiya uchun ham zarur ekanligi dunyo psixolog olimlari tomonidan ham alohida e'tirof etilgan. Drama, biografiya, she'riyat va fantastik asarlar psixologlar uchun ulkan xazinadir

Inson ruhiyatining bilimdoni bo'lgan, badiiy mahorati yuksak ijodkorlar psixologik tasvir, ruhiyat tahlili va personaj o'y-xayollari oqimining xususiyatlarini o'z asarlarida namoyon eta oladilar. Mashhur yozuvchi Stefan Sveyg bir qancha nasr namoyondalari haqidagi portretida Stendal, Amiel, Lev Tolstoy, Karlayl, va Marsel Prust singari adiblarning inson ruhiyatining ilmiy tadqiqiga qo'shgan hissalarini psixologiya sohasi mutaxassislarinikidan ortiq ekanligini ta'kidlagan .

Inson his-tuyg'ulari va ularning yuzaga chiqish sabablarini o'rganadigan psixologiya fani tadqiqot obyekti badiiy adabiyot- insonshunoslik bo'lgan adabiyotshunoslik uchun katta yordamchi bo'la oladi. Shaxsni u yoki bu aspektida o'rganish uchun bir qancha gumanitar fanlarning shug'ullanishi bejiz emas.

Biz obyekt sifatida tanlagan "Jimjitlik" romani va undagi rahbar Mirvali obrazi tasviri shu turdagi qiyosiy tahlil uchun zarur bo'lgan badiiy tasvir imkoniyatlariga egadir. Realistik prozada katta iqtidorga ega bo'lgan Said Ahmad asarda asosiy o'rin tutuvchi Mirvali xarakterini mahorat bilan tasvirlab bera olgan . Ilmiy bilimlar bilan amalga oshiriladigan qiyosiy tahlilga tortish uchun asarning badiiyati hamda undagi romanij tafakkur yetarlicha

imkoniyatlar beradi. Shuningdek uning roman janrida ekanligi ham bu borada ayni muddaodir. Roman- psixologik tahlil uchun imkoniyatlari keng janrdir. Romanga xos bo'lgan tarixiy davrning keng manzarasini, ma'lum ijtimoiy hayotning badiiy tarixini yaratish bilan xarakterlanadigan bosh xususiyat bu janrdagi asarlarda ma'lum qahramonlar xarakterida namoyon bo'ladigan va milliy psixologiyani ham, xarakterning "qalb dialektikasi"ni ham keng izchil, har tomonlama ochish va bunda turli usul va vositalardan foydalanish imkonini beradi.

"Jimjitlik" romanida muallif asosiy qahramon bo'lgan sovxoz rahbari Mirvali xulqi, ruhiyati, xatti-harakatlarini atroflicha tasvirlagan. Mirvali xarakteridagi xususiyatlar o'zi mansub bo'lgan ijtimoiy muhit bilan bevosita aloqador bo'lganligi uchun uning ruhiyatini tipologik prinsip asosida tadqiq etish ham maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, adib bu qahramon ruhiyatini gap-so'zlari, xatti-harakatlari vositasida tasvirlagani sababli psixologik tahlilning dinamik prinsipi ham bu borada yaxshi samaralar beradi.

Mirvali xakteri tasvirining psixologiya qonuniyatlariga qay darajada mos yoki nomuvofiq ekanligini aniqlash uchun bu fanning shaxs psixologiyasi sohasi bilimlariga tayanamiz. Negaki shaxs psixologiyasi inson xakteri va his-tuyg'ularini har tomonlama o'rganuvchi fandır. Shunday ekan, inson ruhiyatini so'z bilan atroflicha mufassal ifodalab beruvchi romanda bu vazifa qanchalik to'g'ri va mantiqli amalga oshirilganini aniqlash uchun obrazlar xulq-atvorini bu fan qonuniyatlariga tayanib tekshirishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Zero, inson oddiy uch o'lchamli jism emas. U murakkab va mukammal qilib yaratilgan, ong va qalb egasi, betakror xakter va his-tuyg'ular sohibi bo'lgan mo'tabar jonzotdir

Yozuvchi inson ruhiyatining badiiy asardagi tasvirini shunchaki intuitsiya mahsuli sifatida emas, kuchli mantiq va ilmiy asoslarga tayangan holda tasvirlashi lozim. Mirvali ruhiyatining bu turdagi tahlilini amalga oshirishda dunyo va o'zbek psixolog olimlari tomonidan yaratilgan qo'llanmalarga murojaat qildik. Jumladan, "Personality psychology", "Personality a psychological interpretation", "Shaxs psixologiyasi" kitoblari va shu sohaga oid bir qancha maqolalarga tayanildi.

Avvalo, Mirvali xakterining shakllanishi, undagi salbiy xislatlarning yuzaga kelishiga sabab omillarga e'tibor qaratish joiz. Ma'lumki, aksariyat insonlar kishi fe'l-atvori shakllanishida ijtimoiy muhitning o'rni katta ekanligini e'tirof etadilar. Bu haqiqat, albatta. Biroq odamlarga xos bo'lgan ba'zi xislatlarning irsiy belgilar asosida paydo bo'lishi, ya'ni ota-onadan farzandga o'tishiga shubha bilan qaraydiganlar ham ko'plab topiladi. Mirvali xakteriga xos bo'lgan salbiy xususiyatlar qanday paydo bo'ldi, degan savolga javob izlash uchun bu masalaga oydinlik kiritish zarur. "Personality psychology" - "Shaxs psixologiyasi" kitobida bu haqida shunday deyilgan: "Yomon xulqning yuzaga kelishi borasida ko'plab fikrlar aytilgan bo'lib, ular orasida bu belgilarning biologik - tug'ma shaklda paydo bo'lganligi haqidagi qarash ustunlik qiladi. Yomon xulqni o'zida saqlagan irsiy belgilar oilaviy hayot, madaniyat, tajriba, odatiy ko'nikmalar, idrok, hissiyot va boshqa omillar ta'sirida o'z xususiyatlarini ma'lum darajada o'zgartiradi".

Shularni e'tiborga olib, Mirvali xakteridagi qaysarlik, maqsadi yo'lida har qanday yovuzlikdan ta'b tortmaslik va barcha imkoniyatlarni o'z shaxsiy manfaatlari yo'lidagi maqsadga bo'ysundirish xislatlari unga otasidan o'tgan, degan xulosaga kelish mumkin. Uning otasi haqida asarda shunday deyiladi: "Rixsivoy Chiroqchilik yoshgina polvondan yiqilib, alamdanda o'zini chavaqlab tashlaydi". Bu voqea ham uning o'g'li singari maqsad odami ekanligini isbotlaydi. U mag'lubiyatni qabul qila olmagan uchun o'zini o'ldirgan. Mag'lubiyatni

qabul qilmaslik odati Mirvaliga ham xosdir. U Luqmonovning tahdidlariga duchor bo'lib, katta tovon to'lashga majburlanganida ham, ikkinchi "Oltin yulduz" ni olishdan mosuvo bo'lganida ham, uni doim qo'llab shu tog'larga sardor qilgan homiysi, otaxoni Shavkat Rahimovich vafot etganida ham, tog'larda sargardon bo'lib, Bodomgulning o'g'li Azizbek tufayli o'lim bilan yuzma-yuz bo'lganida ham mag'lubiyatni also qabul qilmadi. Bu mag'rurlik unga otame'ros ekanligiga shubha yo'q. Negaki buning uchun zarur bo'lgan qat'iyat otasida yetarlicha edi. Uning o'zini o'ldirishi salbiy holat, albatta. Biroq bu ishni qilish uchun ham jur'at kerak. Jinoyat erkin iroda hosilasidir. Mirvali ham erkin iroda sohibi bo'lgach, o'z shaxsiy manfaatlarini ustun qo'yib bo'lsa-da, katta ishlarni amalga oshira oldi.

Yuqorida keltirilgan yomon xulq me'rosi haqidagi ilmiy ta'rifning ikkinchi qismida bunday axloqni o'zida saqlagan irsiy belgining ijtimoiy hayot ta'sirida ma'lum darajada o'zgarishga uchrashi haqida ma'lumot berildi. Mirvali shaxsiyatida ham bu jarayon amalga oshdi. U dunyoning turli nuqtalarini kezib, hayot ne'mati haqida xulosalar chiqarib, o'z homiylari soyasida davr-u davron surib, endilikda mag'rur bo'lib, o'zini o'ldirishni emas, shon-shuhrat, boylik va obro' bilan e'zozda yashashni zarur deb bildi. Bu fikrning yana bir isboti sifatida Mirvalining roman ibtidosida Tolibjonga aytgan gaplari e'tiborga molik: "Qaytib kelganing juda yaxshi bo'ldi. Odamlarning esidan chiqmaydigan ko'p ishlar qilamiz". Asarda Mirvalining onasi haqida juda kam ma'lumot berilgan. Uning farzandini dunyoga keltirayoganda vafot etgani hamda Tolibjonning o'gay onasi bo'lgan kampirning singlisi ekanligi aytilgan, xolos. Agar bu ayolning portreti aniqroq chizilganida Mirvaliga me'ros bo'lib o'tgan xislatlar haqida batafsilroq fikr yurita olardik, ehtimol.

Kishining bolalikda shakllangan ko'nikmalari keyinchalik uning hayotida muhim ahamiyat kasb etishi borasida shaxs psixologiyasi ilmida quyidagilar bayon qilingan: "Artur Staatsning modeliga ko'ra, bolalikda o'rganilgan ko'nikmalar kishida asosiy axloqiy qarashlar ba'zasi bo'lib xizmat qiladi". Mirvali halol bo'lmagan yo'llar bilan katta boylik to'pladi, unga erishish va erishilgan boylikni asrash yo'lida har qanday to'siqni yo'q qilishga intildi. Yashirin xazinasidan xabardor bo'lib qolgan Asqaralini o'ziga yaxshilik qilganiga qaramay ko'zlarini piri-piratmasdan shafqatsizlarcha o'ldirdi. Bu holat mulkni xavfsiz saqlab qolish yo'lida istaganini o'ldirish ko'nikmasi mahsuli edi. Uning bolaligida qilgan ba'zi ishlari bu masalada tajriba bo'lgan. Razzoq buqachining oshxonasi shiftidagi qazini o'g'irlashi va bunga xalaqit beradigan itni qo'lga o'rgatib, keyin azoblab o'ldirishi uning kelajakda qiladigan ulkan o'g'irliklari va shafqatsiz qotilliklari uchun repetitsiya vazifasini o'tadi. Etibor berilsa, Mirvali o'ziga to'siq bo'luvchilarga avval yaqinlashadi, keyin ularni o'ldirish uchun payt poylaydi va nihoyat imkon topishi bilan o'ldiradi. "Mirvali shu itdan qasd olish payiga tushdi"... "Oxiri it unga o'rgandi". "Mirvali qo'ynidan gugurt chiqazib, bir parcha qog'ozni yondirdi-da, itning bo'yniga tutdi. Xuddi fonar yog'i sepilgandek itning junlari lop etib yonib ketdi. Olov ichida qolgan it dahshatli ulidi. Endi u kattakon mash'aladek lovullab yonardi. Saldan keyin itning ovozi o'chdi, qimirlamay qoldi".

Endi Mirvalining Asqarali bilan bog'liq harakatlariga e'tibor qaratamiz. "Bu sandiq ichi pulga, oltin-u marvaridlarga to'la edi"... Asqaraliga murojaat qilib -"Sakkizta moyi artilmagan "Jiguli" turibdi. Xohlaganingizni olib ketaverasiz". "Mirvali rulni keskin burib yuborgan edi, Asqaralini tom bo'yi toshga qapishtirib qo'ydi". Biz bu misollar orqali Mirvalining bolalik va yetuklik davridagi o'g'irlik va o'ldirish borasidagi ishlari tadrijiga e'tibor qaratdik. Shuningdek, unga bolaligida xos bo'lgan vahshiylik ulg'ayganida yanada

yovuz tus olganini kuzatish mumkin. “Mirvali payt poylab mushukni tutdi. Ikki ko’ziga mix tiqib, mo’ylovini qaychilab, qo’yib yubordi. Mushuk alam bilan miyovlar, qayoqqa qarab yursa o’zini bir nimaga urib olardi. Yo bo’lmasa ariqqa tushib ketardi. Uning bu holidan Mirvali mazza qilib kulardi”

Psixolog olim Volter Mishel shuni takidlaydiki, “Kishilar xarakterini o’rganishda ular tushgan holatlar tadqiqi ular xarakterining xususiyatlari tadqiqidan ko’ra samaraliroq bo’ladi”. Bu qoidadan shunday xulosaga kelish mumkinki, inson ma’lum bir og’ir yoki g’ayritabiiy vaziyatga tushib qolganida fe’l-atvorining shu vaqtgacha namoyon bo’lmagan qirralarini namoyish qilishi mumkin. Ularning o’rganilishi shaxs haqidagi umumiy kuzatishlar tadqiqidan ko’ra samaraliroq bo’ladi.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, badiiy asarlardagi qahramonlar ruhiyatini tadqiq etishda psixologiya fani yutuqlaridan foydalanish muhim ilmiy-nazariy xulosalarning maydonga kelishi uchun sharoit yaratishi mumkin. Yozuvchining personajlar o’y-xayollarini, harakatlari ortidagi murakkab his-tuyg’ularini ifoda etishda hayotiy mantiq prinsiplariga qay darajada rioya qilganligi asar badiiyatida o’z belgilarini namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan psixologik tasvirni ilmiy asosda tekshirish tadqiqotning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ahmad S. Jimjitlik (roman). – Toshkent: “Sano-standart”, 2021. – 384 b.
2. Умуров Х. Ўзбек романчилигида бадий психологизм - (қўлланма). – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1982, 46 б.
3. Умуров Х. Бадий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: “Фан”, 1983, 146
4. Шодиев Н. Руҳият рассоми. – Тошкент: “Фан” нашриёти. 1977, 48 б. Ҳозирги ўзбек адабиётининг миллий ўзига хослиги. – Тошкент: “Фан”. 1984, - 199 б.
5. Ҳозирги адабий жараённинг актуал проблемалари. – Тошкент: “Фан”, 1984, - 166 б.
6. Ҳамдамов У. Бадий тафаккур тадрижи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – 198 б.